

## O‘ZBEK TILIDA MIQDOR-DARAJA VA O‘RIN RAVISHLARINING TURKUMIY XUSUSIYATLARI

**Muhabbat Kurbanova Matyakubovna,**

*O‘zbekiston Milliy universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasini mudiri,*

*Filologiya fanlari doktori, professor*

*E-mail: [qurbonova2007@mail.ru](mailto:qurbonova2007@mail.ru)*

**Saydullayeva Dilbar Farhod qizi,**

*O‘zbekiston Milliy universiteti Jurnalistika va o‘zbek filologiyasi fakulteti*

*lingvistika yo‘nalishi magistranti*

*E-mail: [saydullayevadilbar069@gmail.com](mailto:saydullayevadilbar069@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligida ravish so‘z turkumining o‘ziga xos xususiyatlari, xususan, miqdor-daraja va o‘rin ravishlarining semantik-grammatik tabiati tahlil qilinadi. Tadqiqotda ravishlarning o‘zgarmaslik xususiyati, ularning boshqa turkumlar (son, ot, sifat, olmosh) bilan aloqadorligi hamda funksional-semantik chegaralari masalasi yoritilgan. Shuningdek, o‘rin ravishlarining shakllanishida “soddalanish” hodisasi, kelishik qo‘shimchalarining roli va ularning o‘rin-joy otlaridan farqli jihatlari ilmiy asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** ravish, miqdor-daraja, o‘rin ravishi, o‘zgarmaslik, semantika, kuchaytiruvchi ravishlar, kuchsizlantiruvchi ravishlar, leksikalizatsiya, o‘rin oti.

**Аннотация.** В данной статье анализируются лингвистические особенности наречия в узбекском языкознании, в частности, семантико-грамматическая природа наречий количества-степени и места. В исследовании рассматриваются вопросы неизменяемости наречий, их взаимосвязь с другими частями речи (числительными, существительными, прилагательными, местоимениями) и функционально-семантические границы. Также научно обоснованы феномен «упрощения» в формировании наречий места, роль надежных окончаний и их отличия от существительных со значением места.

**Ключевые слова:** наречие, количество-степень, наречие места, неизменяемость, семантика, усилительные наречия, ослабляющие наречия, лексикализация, существительное места.

**Abstract.** This article analyzes the linguistic features of adverbs in Uzbek linguistics, specifically the semantic-grammatical nature of adverbs of quantity-degree and place. The study examines the invariability of adverbs, their relationship with other parts of speech (numerals, nouns, adjectives, pronouns), and their functional-semantic boundaries. Furthermore, the phenomenon of "simplification" in the formation of adverbs of place, the role of case endings, and their differences from nouns denoting place are scientifically justified.

**Keywords:** adverb, quantity-degree, adverb of place, invariability, semantics, intensifying adverbs, weakening adverbs, lexicalization, noun of place.

**Kirish.** O‘zbek tili morfologik tizimida ravish so‘z turkumi o‘zining lisoniy tabiati, shakllanish manbalari va boshqa mustaqil so‘z turkumlari bilan o‘zaro aloqadorligi (interferensiyasi) jihatidan eng murakkab va bahsli toifalardan biri sanaladi. Tilshunoslikda ravish turkumini talqin qilishda, avvalo, uning o‘zgarmaslik xususiyatini asosiy mezon sifatida e‘tiborga olish lozim. Mazkur metodologik yondashuv ravishning so‘z turkumi sifatidagi statusini belgilashda ko‘p yillardan buyon davom etib kelayotgan qator qarama-qarshiliklarga va turkumlararo chegaralarning noaniqligiga nuqta qo‘yadi.

An'anaviy grammatikada ravishlar asosan fe'lga bog'lanib, harakatning belgisini bildiradi deb qaralsa-da, zamonaviy tadqiqotlar uning doirasi ancha kengligini ko'rsatmoqda. Xususan, miqdor-daraja va o'rin ravishlari o'zining semantik ko'lami bilan nafaqat fe'lni, balki sifat, son va otlar bilan ham funksional munosabatga kirishadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Mazkur tadqiqotda o'zbek tilshunosligida ravish so'z turkumining talqini bilan bog'liq ilmiy manbalar tahlil qilindi. Xususan, O.Azizov, M.Kurbanova, R.Sayfullayeva, S.Fuzailov kabi olimlarning ishlarida ravishlarning grammatik xususiyatlari, ularning boshqa so'z turkumlari bilan aloqasi va semantik chegaralari yoritilgan. Shuningdek, keyingi tadqiqotlarda ravishlarning o'zgarmaslik belgisi asosiy mezon sifatida qaralib, ayrim birliklarning ravish yoki yuklama sifatida talqin qilinishi masalasida turli yondashuvlar mavjudligi aniqlandi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, miqdor-daraja va o'rin ravishlari masalasi hali ham ilmiy bahsli yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy va semantik tahlil usullaridan foydalanildi. Ravishlarning grammatik va leksik xususiyatlari misollar asosida tahlil qilinib, ularning boshqa so'z turkumlari bilan o'xshash va farqli jihatlari aniqlashtirildi. Shuningdek, o'rin ravishlarining shakllanishida soddalanish jarayoni va kelishik qo'shimchalarining roli funksional yondashuv asosida o'rganildi.

**Tahlillar va natijalar.** Ravish turkumini talqin qilishda o'zgarmaslik xususiyatini e'tiborga olish uning so'z turkumi sifatidagi xususiyatini be'igilashda qator qarama-qarshilikka nuqta qo'yadi.

Miqdor-daraja ravishi miqdoriy sifat va darajani ifodalaydi: ko'plab, sal, qarich-qarich, arang, xiyol, yana kabi. Miqdor-daraja ravishi songa yaqinlashadi. Biroq son bilan «noaniq miqdor» belgisi ostidagi noto'liq ziddiyatda belgisi a'zo sifatida yuzaga chiqadi. Miqdor va daraja ravishlari ish-harakat yoki belgining miqdorini, kuchini shuningdek, predmetning noaniq miqdorini anglatadi. Miqdor va daraja ravishlari qancha? qay daraja? kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Miqdor va daraja ravishlari ma'noga ko'ra yo miqdor tushunchasini ifodalaydi, yoki boshqa so'zning faqat ma'nosini kuchaytiradi. Shunga ko'ra bu guruh ikkiga bo'linadi:

1) Miqdor ravishi; 2) Daraja ravishi. Miqdor ravish harakat yoki predmetning noaniq miqdorini anglatadi: ko'p, oz, kam, biroz, sal, picha, qitak, xiyol kabi. Daraja ravishi harakat yoki belgi ma'nosini kuchaytiradi: juda, g'oyat, nihoyatda, har qancha, oz-muncha, sira, aslo, kabi. Miqdor va daraja ravishlari gapda ko'pincha hol vazifasini bajaradi: O'rmonjon akamning bir gaplari sira-sira esimdan chiqmaydi. Miqdor va daraja ravishlari gapda ot bilan bog'lanib, uning aniqlovchisi bo'ladi. Bu vazifa holga nisbatan kamroq uchraydi: Ko'p gap quloqqa yoqmas. Miqdor-daraja ravishlari gapning kesimi vazifasini bajarishi mumkin: Viloyatimizda bu yil paxtadan mo'l hosil olgan brigadalar ko'p. Bu kabi ravishlar otlashganda esa to'ldiruvchi va qaratqich vazifasini ham bajaradi. Masalan: Ko'pdan quyon qochib qutulmas (*maqol*) kabi.

O‘rin ravishi harakatning yuz berish joyini, o‘rnini bildiradi: olg‘a, ilgariga, oldinga. Eslatma. O‘rin ravishini o‘rin otidan farqlamoq kerak. Bunga o‘rin otlarining morfologik o‘zgarishi asos qilib olinadi:(atrofimiz), (o‘rnida), (o‘rtadan), (ichkarida), (o‘ngdan), (chapda), (oldida), (uyerdan) kabi. O‘rin ravishi. Ish harakatning bajarilish o‘rnini anglatadi.O‘rin ravishining ma'nosi o‘rin ma'nosini ifodalaydigan otning ma'nosiga nisbatan abstrakt, umumiy bo‘ladi. O‘rin ravishlariga: nari, beri, unda-bunda, allaqayerdan, buyoqqa, u yoqqa! kabi so‘zlar kiradi. O‘rin ravishi asosan hol vazifasini bajaradi: Bunda bulbul kitob o‘qiydi. Qani bu yoqqa o‘tiring-chi!

Ravishlarning darajalanmasligini grammatik xususiyatlardan biri sifatida belgilar ekanmiz, amaliy jarayonda ularning bu xususiyatini alohida hisobga olish kerak bo‘ladi. Chunonchi, mana shu omil yaqin yillargacha ravishlar sirasiga kiritilib, o‘rganib kelingan bir qator darajalanuvchi leksik birliklar (*ko‘p, oz, kam*)ning ravish bo‘lmasligiga ishoradir.

Mavhumiy miqdor ma'nosini ifodalash nafaqat ravishga xos xususiyat, balki ot, sifat, son, olmosh kabi so‘z turkumlari ham miqdor ifodalash xususiyatiga ega. Ravishlarning miqdor-daraja deb ajratiluvchi semantik guruhi ravish bilan sonlarni tutashtiradi. Miqdor-daraja ravishlari songa xos xususiyatlarni o‘zida tashiydi.

Miqdor ravishi o‘zi aniqlab kelgan so‘zning belgisini ko‘rsatib, aniqlab keladi. Mana shu xususiyatiga ko‘ra manbalarda daraja-miqdor ravishi ikkiga bo‘lib o‘rganiladi:

**1. Kuchaytiruv ravishlari.** Bu ravishlar o‘zi aniqlab kelgan so‘zning belgisini ma’lum darajada orttirib, kuchaytirib ko‘rsatadi: *tag‘in, talay, xiyla, tamomila, obdan, rosa, xo‘p, batamom, butkul, butunlay, tamoman, tobora* kabi. Bu kabi kuchaytiruv ravishlarining muhim belgisi – fe’llar bilan birikib, ularning ma’no darajasini bo‘rttirib, kuchaytirib ko‘rsatishda kuzatiladi. Bu ravishlardan bir qismi (*butkul, tobora, tag‘in, mutlaqo*) harakat bilan bog‘liq biror bir hodisani muayyanlashtirsa, boshqa bir turida sof ko‘plik mazmuni anglashilib, narsa-buyum, mavjudot, belgi, harakat bildiruvchi har qanday so‘z bilan birikib keladi. Bu guruhchaga *ko‘plab, bir nechta, bir qancha, uilya, talay, ancha, qop-qop, etak-etak* kabi ravishlar misol bo‘ladi. Ilmiy adabiyotlarda *eng, nihoyat (da), g‘oyat(da), bag‘oyat, g‘irt, lang, o‘ta* kabilar ravish (kuchaytiruv ravishlari) deb ko‘rsatiladi. Aslida bular asliy sifatlarning ma'nosini muayyanlashtiruvchi shu so‘z turkumiga xos xususiy kengaytiruvchilardir. Bu elementlar belgining belgisini oydinlashtirsa-da, sof ma’nodagi ravish bo‘lolmasligini mustaqil, alohida olingan holda ma’no ifodalay olish qobiliyatidan yiroqligi bilan ham isbotlash mumkin. *G‘oyat, o‘ta, nihoyat, g‘irt* kabilar aniq bir tushunchani emas, balki turli-tuman munosabatlarni ifodalovchi leksemalar hisoblanadi. Shuning uchun ularni orttirma darajadagi sifatlarni hosil qiluvchi yordamchi leksik birliklar (yuklamalar) sifatida o‘rganish lozim. Ilmiy manba, darslik va qo‘llanmalarda [eng], [juda], [nihoyat], [g‘oyat], [lang], [g‘irt] kabi so‘z kuchaytiruv ravishi deb qaraladi. Holbuki, bu shakllar ravish oldidan kelib belgi ma'nosini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shuning uchun keyingi yillarda ayrim tadqiqotchilar bu

unsurlarning ravish emasligini, chunki ravish kabi mustaqil lugʻaviy maʼnodan xoliligini taʼkidlashib, kuchaytiruv yuklamasi sirasida oʻrganish lozimligini uqtiradi.

**2. Kuchsizlantiruvchi ravishlar.** Kuchaytiruv va kuchsizlantiruvchi ravishlar miqdor belgisining ortiq va ozligiga koʻra ziddiyatda boʻladi. Miqdor mazmunining bevosita ramzi sifatida keluvchi bunday ravishlar bir butun holda til va nutqda muayyan vazifa bajaradi. Kuchsizlantiruvchi ravishlar miqdor belgisining meʼyoriy holdan kamligini ifodalaydi. Bunday ravishlarni ifoda materialidan kelib chiqib, ikkiga boʻlish mumkin: Birinchidan, *harakat belgisini* ozaytirib koʻrsatuvchi kuchsiz ravishlar. Bunday ravishlar (*arang, zoʻrgʻa, sal-pal, bir oz, qisman, elas-elas*) asosan, *holat* va *nutq* feʼllariga birikib, belgining kuchsizligini koʻrsatadi. Ikkinchidan, narsa-buyum yoki harakat belgisi (miqdori)ni kuchsizlantirib koʻrsatuvchi ravishlar. Ravishning bu turi meʼyoriy darajadan kam boʻlgan miqdor belgisini bildiradi: *bir oz, jinday, qittay, andak, tirnoqcha, zigʻircha* va h.k. Shuning oʻziyoq, nazarimizda, ravishning darajalanishiga ehtiyoj qoldirmaydi, chunki ravish guruhida belgining ortiq va kamligini koʻrsatuvchi maxsus leksemalar mavjud.

*Keragicha, yetarlicha, tegishlicha* kabi miqdor ravishlarida belgi darajasi meʼyorda boʻladi, yaʼni bu kabi ravishlar miqdorning koʻp yoki ozlikka munosabatini bildirmaydi.

Nutqimizda kam qoʻllanuvchi *birmuncha, bisyor, bot-bot, chandon, ziyod* kabi ravishlar ham belgi darajasining turlichaligi bilan farqlanib turadi.

Umuman olganda, nutqimizda miqdor belgisini turli leksik vositalar ifodalay oladi. Bu holat deyarli barcha mustaqil soʻz turkumlari doirasida kuzatiladi. Chunonchi, sifat (*sanoqsiz, behisob, yakka, yarim, oz, koʻp, serob*), olmosh (*ne-ne, necha-necha*), feʼl (*koʻpaymoq, kamaymoq, toʻplamoq*) va nihoyat ravishlarda miqdor belgili soʻzlar borki, ular grammatik tabiatiga koʻra oʻzaro farqlanadi.

**Oʻrin ravishlari** harakat-holatning roʻy berish, boshlanish, yoʻnalish oʻrnini anglatadi. Oʻzbek tilida oʻrin maʼnosi *oʻrin-joy (makon) otlari, oʻrin ravishlari* va *oʻrin-joyga ishora qiluvchi olmoshlar* bilan ifodalanadi. Oʻrin maʼnosini ifodalovchi leksema va soʻzshakllarning, ifoda materialini tadqiq etish jarayonida shunga guvoh boʻldikki, oʻzbek tilida oz sonli oʻrin ravishlari mavjud. Bu hodisani oʻzbek tilida, umuman, turkiy tillarda oʻrin-makon maʼnoli soʻzshakllarning hosil boʻlishini taʼminlaydigan kelishik koʻrsatkichlari (*-ga, -da, -dan*) borligi bilan izohlash mumkin. Shu oʻrinda aytish mumkinki, turk tilida ham sanoqli miqdordagina morfologik oʻzgarimas oʻrin ravishlari mavjudligi qayd etiladi. Oʻrin ravishlarining aksariyati “soddalanish” asosida hosil boʻlgan leksemalardan iborat. Masalan, *orqavarotdan, tubanda, toʻgʻridan, roʻparadan, oldindan, orqadan, unda-bunda* kabi ravishlar shular jumlasidandir. «Olmoshdan, – deb yozadi S.Fuzailov, – oʻrin-makon kelishiklari orqali ravish yasaliş hodisasi ham uchraydi. Koʻrsatish olmoshlaridan *u, bu, shu* kabilar oʻrin-makon kelishiklaridan birini olsa, ravishga aylanadi».

*Ro'paradan, to'g'ridan* va boshqa o'rin ma'nosini ifodalovchi ravishlar tarkibiy qismlarga ajralsa-da, ayni holatda turlangan so'z shakllari bo'lmish *uydan, ko'chadan* kabilar bilan bir safda turolmaydi. Buni quyidagicha izohlash mumkin. Birinchidan, bularni shakl yasaliş asosi hamda turlovchi tarkibdan iborat, deb aytish mushkul. Chunonchi, ularning ma'nosini shakl yasaliş asosidek ko'ringan qism (*to'g'ri, ro'para*) va *-dan* kelishik shaklining ma'nosi bilan izohlab bo'lmaydi. Ikkinchidan, *to'g'ri, ro'para* kabi so'zlarning har qanday kelishik shakli bilan erkin birika olmasligi ham bu so'zlarning makon kelishiklari bilan birga soddalashganligidan darak beradi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, *to'g'ridan, ro'paradan, orqavarotdan, tubanda, olisdan, quyida* kabi ravishlar tarkibidagi kelishik shakllari o'zining grammatik xususiyatini (asl mohiyatini) yo'qotgan. Nutqimizda birmuncha keng qo'llanuvchi bunday ravishlar kishilar ongida tarkiban va mazmunan yaxlit bir butunlik sifatida gavdala-nadi: *...bunday kishilarga tegishlicha chora ko'rilishini talab etamiz, deb tubanda qo'l qo'yuvchilar* (P.Tursun). *Ro'paradan esgan issiq shabada yuzlarni yalaydi* (A.Muxtor). Yuqoridagi kabi ravishlarda o'rin ma'nosida keluvchi *-da, -dan* qo'shimchalari so'z o'zagiga qo'shilgach, o'zining grammatik maqomi jihatidan ham, mazmunan ham birlamchi ma'nosini butunlay o'zgartirgan. Masalan, *to'g'ri-to'g'ridan (-da, -ga), oldin- oldindan (-da, -ga), ro'para - ro'paradan (-da, -ga) quyi - quyidan (-da, -ga)*.

**Xulosa.** Shu o'rinda aytish mumkinki, o'rin-makon ma'nosini ifodalab kelgan otlar (odatda, *-ga, -da, -dan* kelishik qo'shimchalari bilan birikib kelgan otlar) asosan yordamchi so'zlar vazifasida keladi. Masalan, *ichida, ustida, ostida, yonida, qoshida, qoshiga* kabi o'rin otlari ko'makchi vazifasida (funktional ko'makchi) ham kela olishi bilan xarakterlanadi. Mana shu dalil ham o'rin ma'nosini ifodalovchi ot va ravishni farqlash omili bo'la oladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 117 b.
2. M.Kurbanova, R.Sayfullayeva. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Fan va texnologiya, 2009. – 255 b.
3. Sayidiraximova D. S. So'z turkumlari tizimida ravishning o'rni. Monografiya. – O'sh, 2005. – 45 b.
4. Safarov F. Son-miqdor maydoni chekka qismi vositalarining lisoniy xususiyati. Buxoro universiteti ilmiy axborotlari. – 2004. 2-son.
5. Fuzailov S. O'zbek tilida ravishlar. – Toshkent: Fan, 1953.
6. Xudoyberganova Z. O'zbek va turk tillarida o'rin holi. Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2002. 5-son.
7. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Muharrir, 2020.
8. O'zbek tili grammatikasi. I tom. Morfologiya. – Toshkent: Fan, 1975.